

UO'T: 633.51/11

BEGONA O'TLARGA QARSHI KURASHDA YERGA ISHLOV BERISH USULLARI HAMDA GERBITSIDLAR QO'LLASHNI SOYANING HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

Karimov Nurbek Dexqonovich

*O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon mintaqaviy filiali
katta ilmiy xodim*

Annotatsiya: Tuproqni ikki yarusli omochda shudgorlash hamda ta'sir doirasi har xil bo'lgan gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llash natijasida begona o'tlar samarali yo'qotilib, soyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorlikning yuqori bo'lishi ta'minlangan.

Kalit so'zlar: Tuproq, ishlov berish, fon, plug, begona o't, g'ovaklik, gerbitsid, soya.

Аннотация: В результате вспашки почвы двухрядным плугом и комплексного применения гербицидов с различным спектром действия эффективно уничтожались сорняки, что обеспечивало рост, развитие и высокую урожайность сои.

Ключевые слова: Почва, обработка, фон, плуг, сорняк, пористость, гербицид, соя.

Abstract: As a result of plowing the soil with a two-row plow and the complex use of herbicides with different spectrums of action, weeds were effectively destroyed, which ensured the growth, development and high yield of soybeans.

Keywords: Soil, processing, background, plow, weed, porosity, herbicide, soybean.

KIRISH

Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini muntazam ta'minlash, chorvachilik va parrandachilikni ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda almashlab ekish dalasida ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida soya ekinining ekish keng yo'lga qo'yish bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5853-sonli Farmonida» belgilangan vazifalarni amalga oshirish qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustaxkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport

salohiyatini sezilarli darajada oshirish muhim strategik vazifalar sifatida belgilanib bu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish dolzarb xisoblanadi.

Asosiy ekin sifatida soya navlarini parvarishlashda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralariga bog'liq holda tuproqning unumdorligini saqlash hamda oshirish, aholini oziq-ovqat va chorvachilikni yem-hashak mahsulotlariga bo'lgan extiyojini qondirish, soyadan yuqori va sifatli hosil olishda soya maydonlarida uchraydigan begona o'tlarga qarshi kurash choralarining agrotexnologik elementlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatining o'tloqi botqoq tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida soya parvarishlanayotgan maydonlarda uchraydigan begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan (tuproqqa asosiy ishlov berish usullari hamda gerbitsidlarni qo'llash) xolda kurashishda soyadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan agrotexnologiya elementlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatuv va taxlillar O'zPITda qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish" uslubnomasi asosida, tajriba variantlarida tuproqning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarini o'rganish "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari bo'yicha, olingan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi umum qabul qilingan Б.А.Доспеховнинг "Методика полевого опыта" uslubi yordamida matematik-statistik tahlil Microsoft Excel kompyuter dasturi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari. O.S.Amirqulov, I.Ch.Norov [19; 246-248-b.] larning ilmiy ishlarida olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, hosildorlik erta mudat tuproqni 20-25 sm chuqurlikda shudgorlab ekilganda 22,3 s/ga ni tashkil etib, chizellab (20-25 sm) ekilgandandan 20,1 s/ga va tuproqqa ishlov bermasdan ekilgandagidan 12,1 s/ga yuqori hosil berganligi aniqlandi, o'rta muddatda esa tuproqni 20-25 sm chuqurlikda shudgorlab ekilganda 21,7 s/ga, chizellab (20-25 sm) ekilganda 19,7 s/ga va ishlov bermasdan ekilganda soya ekinidan 11,3 s/gani tashkil etganligi ma'lum bo'ldi, kech muddatda 20-25 sm chuqurlikda shudgorlab ekilganda soya ekinidan 20,9 s/ga, chizellab (20-25 sm) ekilganda esa 19,2 s/ga va ishlov bermasdan ekilganda 9,4 s/gani tashkil etganligi namoyon bo'ldi.

Dehqonchilikda qo'llaniladigan barcha tuproqqa ishlov berish usullari hamda agrotexnik tadbirlar, soyaningning o'sishi va rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratishga qaratilgan.

Shu tadbirlar orasida, begona o'tlarga qarshi kurashni o'z vaqtida olib borish muhim o'rin tutadi. Begona o'tlar bilan kuchli zararlangan maydonlarni qisqa muddat ichida begona o'tlardan tozalab bo'lmasligi, bu esa soyaning o'sishi va rivojlanishiga jiddiy zarar keltirishi hamda soya don hosilini keskin kamayishiga olib keladi soya etishtirishda begona o'tlarga qarshi agrotexnik kurash tadbirlar bilan kimyoviy kurash

tadbirlarini uyg'unlashgan holda qo'llash orqali maydonlarni begona o'tlardan toza bo'lishiga erishish mumkinligi biz olib borgan tadqiqotlarda o'z isbotini topdi.

Bizning 2022 yilda olib borilgan tajribamizda soyaning hosildorligi bir gektar hisobida tuproqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi I-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida soya doni hosildorligi 19,5 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 21,5 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 23,3 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 26,2 s/ga ni tashkil qildi.

Soyaning don hosildorligi tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi I-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida 21,6 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 25,4 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 26,9 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 30,2 s/ga ni tashkil qilganligi kuzatildi.

Tuproqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi II-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida soya doni hosildorligi 19,0 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 21,7 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 23,9 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 25,6 s/ga ni tashkil qildi.

Soyaning don hosildorligi tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi II-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida 22,2 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 25,8 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 27,2 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 30,2 s/ga ni tashkil qildi.

Tuproqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi III-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida soya doni hosildorligi 18,8 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 22,2 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 23,8 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 25,8 s/ga ni tashkil etganligi kuzatildi.

Soyaning don hosildorligi tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi III-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida 21,4 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 24,9 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 26,7 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 29,9 s/ga ni tashkil qilganligi qayd etildi.

Tuproroqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi IV-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida soya doni hosildorligi 17,6 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 20,8 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 23,6 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 24,9 s/ga ni tashkil etdi.

Soyaning don hosildorligi tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi IV-qaytariq nazorat (gerbitsidsiz) variantida 21,9 s/ga, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 25,3 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 27,6 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 30,4 s/ga ni tashkil qilganligi kuzatildi.

Tajribamizda soyaning hosildorligi bir gektar hisobida qaytariqlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi ham taxlil qilindi. Oligna ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tuproqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi nazorat (gerbitsidsiz) variantida qaytariqlar bo'yicha o'rtacha 18,7 sentner hosil olingan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 21,7 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 23,6 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 25,6 s/ga ni tashkil qilib, nazoratga nisbatan mos ravishda 3,0; 4,9; 6,9 s/ga ga yuqori bo'ldi.

Tajribalarimizda soyaning don hosildorligi tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi nazorat (gerbitsidsiz) variantida qaytariqlar bo'yicha o'rtacha 21,7 sentner hosil olingan bo'lsa, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 25,3 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantda 21,7 s/ga, bu ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantda 30,1 s/ga ni tashkil qilib, ushbu fonimizdagi nazorat variantiga nisbatan mos ravishda 3,6; 5,4; 8,4 s/ga ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Kuzatuvlarimizda soyaning don hosildorlik ko'rsatkichi begona o'tlarga qarshi tuproqqa ishlov berish usullarida ham bir-biriga taqqoslab o'rganildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tuproqni ikki yarusli omochda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanib, shudgorlash oldidan va soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda gerbitsidlarni qo'llashning samaradorligi, oddiy omoch yordamida 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanib, gerbitsidlar qo'llanilgan variantlarga nisbatan xam hosildorlik yuqori bo'lishi hamda begona o'tlarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.

Jumladan, begona o'tlarga qarshi tuproqni oddiy omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi nazorat (gerbitsidsiz) variantiga nisbatan, tuproqni ikki yarusli omoch yordamida shudgorlangan fonimizdagi nazorat (gerbitsidsiz) variantida 3,0 s/ga, xuddi shunday ishlov berish usuli qo'llanilib, shudgorlashdan oldin Dafosat gerbitsidini 4,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantlarimizda ishlov berish usullariga nisbatan 3,6 s/ga, soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Imazet 10% k,s 0,5 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantlarimizda esa 3,5 s/ga, kuzatuvlarimizdagi eng yuqori ko'rsatkich soya o'simligi 2-3 barg chiqarganda Pilot gold 10% sus. gerbitsidini 0,6 l/ga me'yorda qo'llagan variantlarimizda kuzatilib, oddiy omoch yordamida 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonimizga nisbatan, ikki yarusli omochda 28-30 sm chuqurlikda shudgorlangan fonimizda 4,5 s/ga qo'shimcha don hosili olishga erishildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, olib borilgan izlanish natijalariga ko'ra asosiy ekin sifatida soya parvarishlashda kuzda tuproqqa ikki yarusli omoch yordamida ishlov berib, begona o'tlarga qarshi gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llash natijasida yuqori hosildorlik bilan birga begona o'tlarni keskin kamayishiga olib kelishi yana bir bor isbotlandi.

Shunday qilib, tuproqni ikki yarusli omochda shudgorlash hamda ta'sir doirasi har xil bo'lgan gerbitsidlarni uyg'unlashgan holda qo'llash natijasida begona o'tlar samarali yo'qotilib, soyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorlikning yuqori bo'lishi ta'minlandi. Qolgan yillarda xam shunga yaqin ma'lumotlar olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni

2.Mo'minov K.M., Rizaev Sh.X. Агротехнические и химические меры борьбы с сорняками на посевах озимой пшеницы // Зерновое хозяйство. 2005. №6. С. 21-22

3.Hasanova F.M., Salomov Sh.T. "Qishloq xo'jaligida yangi tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami. T. 2011. B. 258-259.

4.Sh. Teshabayev. Begona o'tlarga qarshi kurashda tuproqqa turli usulda ishlov berib, gerbitsidlar qo'llashning g'o'za unib chiqishi hamda hosildorligiga ta'siri: (Qishloq xo'jaligi jurnali) 2020. № 2 B 39-40.

1. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – T. 1. – C. 33-38.

2. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.
3. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
4. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
5. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
6. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
7. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.
8. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.